

Date: 5th November-2024

PROFILAKTIK XISOBGA OLINGANLARNI IJTIMOIIY MOSLASHUVI VA
BUNDA PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING O'RNI

Raximjonova Sarvinoz Ali qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 336-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, profilaktik hisobga olingan shaxslar tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari va profilaktik hisobga olingan shaxslarning ijtimoiy moslashuvida profilaktika inspektorlarning o'rni, shuningdek, profilaktika inspektorlarining profilaktik xisobda turgan shaxslar bilan ishlash faoliyatini tashkil etish va ularning moddiy-texnik ta'minotidagi muammo va kamchiliklar, ushbu muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha bir qator takliflar yoritib o'tilgan.

Аннотация: Актуальность темы данной научной статьи заключается в том, что понятие лиц, состоящих на профилактическом учете, их характеристика и роль инспекторов-профилактиков в социальной адаптации лиц, состоящих на профилактическом учете, а также организация работы инспекторов-профилактиков с лицами, состоящими на профилактическом учете и Освещены их проблемы материально-технического обеспечения и недостатки в снабжении, а также ряд предложений по устранению этих проблем и недостатков.

Ilmiy maqolaning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning aniq manzilga yo'naltirilmaganligi va ularga kompleks yondashilmayotganligi, shuningdek huquqbuzarliklarning tizimli ravishda sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish samaradorligi mavjud emasligi ko'rsatib o'tildi. Ushbu hujjatda qonuniylik ahvolini va Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha choratadbirlarning samaradorligini atroflicha muhokama qilish uchun joylarda, birinchi navbatda kriminogen vaziyat nomaqbul bo'lgan hududlarda fuqarolarning sayyor qabullarini hamda davlat idoralari va tashkilotlari vakillarining aholi bilan uchrashuvlarini tashkil etish masalalari belgilab berildi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning aniq manzilga yo'naltirish va ularga kompleks yondashish, idoralararo hamkorlikni rivojlantirish, huquqbuzarliklarning samarali profilaktik xisobda turgan shaxslar bilan ishlash faoliyatini amalga oshirish borasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan bir qatorda, boshqa davlat organlari va jamoat tashkilotlarining ham ustuvor vazifasi etib belgilanishi bu borada ularning oldiga alohida vazifalar belgilab berilishi Huquqbuzarliklar profilaktikasida samarali natijalarga erishishga imkon berdi.

2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish» kabi vazifalar nazarda tutilgan. Bu esa respublikamizda ichki ishlar organlari



Date: 5th November-2024

tayanch punktlari faoliyatiga ilg'or tajribalar, ish usullari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ular faoliyatini huquqiy, tashkiliy-metodik, moddiy-texnik jihatdan va malakali kadrlar bilan ta'minlashni takomillashtirish, tayanch punktlari negizida o'zaro maqsadli hamkorlikni tashkil etishda jamoatchilik tuzilmalari ishtirokining samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

Profilaktika inspektorining profilaktik hisobda turgan shaxslar bilan ishlash faoliyati deganda – ichki ishlar organlari profilaktik hisobda turgan shaxslarni axloqan tuzalishi va qayta huquqbuzarlik sodir etishlarining oldini olish maqsadida ular bilan olib boriladigan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan profilaktika choratadbirlarini amalga oshirish faoliyati tushuniladi.

Huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning tuzalishini ta'minlash va qayta huquqbuzarlik sodir etishining oldini olish maqsadida profilaktika inspektorlari tomonidan Huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ va muassasalar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan profilaktik tadbirlar majmuidan iborat profilaktik hisob yuritiladi.

Profilaktika (katta) inspektori profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan yakka tartibda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishda shaxsning yoshi, jinsi, ruhiy holati, ijtimoiy ahvoli, ma'lumoti va mutaxassisligi, ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari kabi shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olishi lozim.

SHaxsni profilaktik hisobga qo'yishga quyidagilar asos bo'ladi:

1. Vakolatli organning yoki mansabdor shaxsning O'zbekiston Respublikasining MJtKning tegishli moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarori (*agarda, huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning xodimlari yoki harbiy xizmatchilar tomonidan mazkur-moddalarda ko'rsatilgan huquqbuzarliklar sodir etilgan taqdirda, ular profilaktik hisobga olinmaydi, xodimga nisbatan intizomiy chora ko'rish uchun uning ish joyiga hujjatni rasmiylashtirgan vakolatli organ yoki mansabdor shaxs tomonidan xabarnoma yuboriladi*);

2. Vakolatli organning yoki mansabdor shaxsning jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi yoxud rehabilitatsiya qilmaydigan asoslar bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qarori;

3. O'ziga nisbatan qamoqqa olish bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyot chorasi tanlangan ayblanuvchi sifatida ishda ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi tergovchining yoki prokurorning qarori;

4. Sudning qonuniy kuchga kirgan ayblov hukmi;

5. Shaxsning jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma;

6. Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyaning qarori.

Qonun va qonunosti hujjatlarga asosan «profilaktik hisobga olish» ichki ishlar organlarining tanyach punktlari profilaktika (katta) inspektorlari tomonidan, voyaga yetmaganlarga hamda ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oiladagi ota-onalarga nisbatan esa inspektor psixologlar tomonidan amalga oshiriladi.



Date: 5th November-2024

Bundan tashqari, profilaktik hisobga olingan shaxslarga nisbatan yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni manzilli (muayyan shaxsga nisbatan), har bir shaxsning ijtimoiy xavflilik holati, u sodir etgan huquqbuzarlik tasnifi, turini hisobga olingan holda samarali amalga oshirish uchun profilaktika (katta) inspektori o'ziga biriktirilgan ma'muriy hududda yashaydigan bunday shaxslarni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarning maxsus qismlarida ko'rsatilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar ob'yektlaridan kelib chiqqan holda toifalarga ajratgan holda ularga nisbatan hisob profilaktika ishlarini, shuningdek ular bilan olib borilgan profilaktik ishlar natijalari bo'yicha hisobotlarni yuritadi.

Profilaktika inspektori bundan tashqari quyidagilarni amalga oshiradi:

- profilaktik hisobga olingan shaxsni g'ayriijtimoiy xulq-atvorni davom ettirmaslik haqida ogohlantiradi;
- profilaktik hisobga olingan shaxsni uning ish (o'qish) va yashash joyidan tekshiradi, uning xulq-atvori haqida ma'lumotlar oladi;
- yakka tartibdagi barcha chora-tadbirlarni («Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunning 5-moddasi «Huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy prinsiplari»da) belgilangan ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlarini farqlash va yakka tartibdagi yondashish tamoyiliga qat'iy amal qilgan holda olib boradi;
- jazoni ijro etish muassasasidan bo'shatilgan shaxslarning oilasiga, shuningdek jamiyatga moslashishida ko'mak beradi;
- profilaktik hisobga olingan shaxsni o'qish yoki ishga joylashtirilishida, shuningdek vaqtincha yashash joyi bilan ta'minlanishida, ijtimoiy hayotga moslashishi uchun moddiy ko'mak olishida yordam ko'rsatadi;
- profilaktik hisobdagi shaxslardan axloqan tuzalayotgan va o'zida ijtimoiy ijobiy xulq-atvorni shakllantira boshlaganlarini rag'batlantirish yoki aksincha g'ayriijtimoiy xulq-atvorini davom ettirgan shaxslarga nisbatan esa, qonunda belgilangan tartibda majburlash choralarini qo'llaydi.

Profilaktik hisob ishini yuritayotgan profilaktika (katta) inspektori quyidagi huquqlarga ega:

- ichki ishlar organi Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari boshlig'i nomidan yoki shaxsan o'zi profilaktik hisobga olingan shaxsga nisbatan ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish choratadbirlarini amalga oshirishda ko'mak berishni so'rab tegishli davlat organlariga, korxonaga, muassasa, tashkilot hamda jamoat tuzilmalariga murojaat qilishga;
- profilaktik hisobga olingan shaxsni yashash va ish (o'qish) joyidan soat 06.00 dan 22.00 gacha xulq-atvorini, hayot tarzini va atrofida qilgan munosabatini kuzatishga, o'rganishga, so'rab-surishtirishga hamda nazorat qilishga;
- g'ayriijtimoiy xulq-atvorni yoki huquqbuzarlik sodir etishga moyillikni davom ettirgan va tuzalish yo'liga o'tmagan shaxslar masalasini uning yashash va ish (o'qish) joyida muhokama qilish uchun yig'ilish kun tartibiga qo'yish tashabbusi bilan chiqishga;



Date: 5th November-2024

– shaxsning muddatidan oldin to'liq tuzalganligi to'g'risida dalolat beruvchi ma'lumotlar mavjud bo'lganda muddatidan ilgari shaxsni profilaktik hisobdan chiqarish to'g'risida qaror qabul qilishga va ichki ishlar organi boshlig'iga taklif bilan chiqishga;

– hisob profilaktika ishlarini yuritish chog'ida boshqa organ, muassasa va jamoat tuzilmasi bilan amalga oshiriladigan hamkorlik masalalariga doir muammolar yuzasidan muvofiqlashtiruvchi kengashga murojaat qilishga.

Profilaktik hisob ishini yuritayotgan profilaktika xizmati xodimi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlardan ham foydalanishi mumkin.

Profilaktik hisob ishini yuritayotgan profilaktika (katta) inspektori quyidagi majburiyatlarga ega:

– profilaktik hisobga olingan shaxs bilan ishlashda huquqbuzarlik profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan ishlash faoliyatining asosiy prinsiplariga to'liq rioya etish;

– profilaktik hisobda turgan shaxsning xulq-atvorini tezkorprofilaktik kuzatuvga olish hamda shaxsga uning individual va ijtimoiypsixologik xususiyatlaridan kelib chiqib profilaktik chora-tadbirlarni belgilashga yondashish va shu asosda profilaktik ta'sir etish usul va shakllarini tanlash, shuningdek qo'llash;

– profilaktik hisobga olingan shaxsga yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarning asoslari va huquqiy oqibatlarini tushuntirish, o'ziga nisbatan yuritilayotgan profilaktik hisob hujjatlari bilan tanishtirish, yuridik yordam ko'rsatish, shuningdek ijtimoiy va moddiy jihatdan (ish, o'qish, yashash joyi bilan ta'minlanishi, oilasi va yashash joyidagi mahalla ahli bilan kirishib ketishi kabilarda) yordam berish choralarini ko'rish;

– yuqori turuvchi organ, mansabdor shaxs hamda muvofiqlashtiruvchi kengashning so'roviga binoan profilaktik hisob ishlarini taqdim etish, shuningdek ularning profilaktik hisobga olingan shaxsga nisbatan yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan bergan buyruq, ko'rsatma, topshiriq va qarorlarini to'liq va o'z vaqtida ijro etish.

Profilaktika (katta) inspektori huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktik hisobga olingan shaxslar bilan ishlash faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham bajarishlari mumkin.

